

Hozirgacha mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar  
vazirligi

Denov tadbirkorlik va pedagogika  
instituti

PEDAGOGIKA FAKULTETI  
MAKTABGACHA TA'LIM  
KAFEDRASI

*"Aziz ustozlar" (To'lqin she'ri,  
S. Boboyev musiqasi), "Oltin kuz"  
qo'shig'i (N. Narzullayev she'ri,  
A. Mansurov musiqasi)*

mavzusidagi laboratoriya  
mashg'ulotining

**TAKLIFNOMA  
VA DASTURI**

Denov – 2024y



Hurmatli ustoz

Sizni 2024 yil 15-oktabr kuni  
soat 11:40-da Musiqa ta'lim yo'nalishi  
3-kurs 3-MUS-22 guruh talabalariga  
"Aziz ustozlar" (To'liq she'ri,  
S. Boboyev musiqasi), "Oltin kuz"  
qo'shig'i (N. Narzullayev she'ri,  
A. Mansurov musiqasi)

mavzusida o'tkaziladigan laboratoriya  
darsimizga taklif etamiz.

Maktabgacha ta'lim kafedrası

Manzil: Pedagogika fakulteti 1-qavat  
103-auditoriya



"Bu borada, avvalambor, yoshlar va  
bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik  
ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy  
barkamol etib tarbiyalashga alohida  
ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni  
kichik yoshdan boshlab rivojlantirish  
orqali kelajakda ularning o'zligini to'la  
namoyon etishiga mustahkam zamin  
yaratayapmiz. Zero, bu ezgu  
maqsadimiz yo'lida sarflangan  
investitsiyalar ertaga bir necha barobar  
ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q".

SH. M. Mirziyoyev



**E'LON!!!**

2024 yil 15-oktabr kuni soat 11:40-da Maktabgacha ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi

Gadoyeva Muborak Jumaqulovning Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-kurs  
4-MUS-22 guruh talabalarida

**“Ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish  
metodikasi”**

fanidan

*“Aziz ustozlar” (To'lqin she'ri, S. Boboyev musiqasi), “Oltin kuz”  
qo'shig'i (N. Narzullayev she'ri, A. Mansurov musiqasi)*  
mavzusida ochiq dars bo'lib o'tadi.

*Manzil: Pedagogika fakulteti 1-qavat  
103-auditoriya*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasining majlis  
BAYONNOMASI

15-10-2024-yil

№ \_\_\_\_\_

Sariosiyo t.

Majlis raisi: O.Achilov  
Kotib: M. Qayumov  
Qatnashdilar: 14 nafar kafedra o'qituvchilari.

**Kun tartibi:**

*Professor-o'qituvchilar tomonidan ochiq darslarni o'tkazish va o'zaro darslarga kirishning tashkil etilishi to'g'risida.*

M.Gadoyevaning ochiq darsi muhokamasi uchun mas'ul – O.Achilov

*Ochiq darsning mohiyati haqida bahs-munozara:* M.Gadoyevaning "Ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi" fanidan "Aziz ustozlar"(To'lqin she'ri, S.Boboyev musiqasi), "Oltin kuz" qo'shig'i (N.Narzullayev she'ri, A.Mansurov musiqasi)" mavzusi muhokamasi.

**Rais – O.Achilov axboroti:**

Hurmatli professor-o'qituvchilar M.Gadoyevaning "Ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi" fanidan "Aziz ustozlar"(To'lqin she'ri, S.Boboyev musiqasi), "Oltin kuz" qo'shig'i (N.Narzullayev she'ri, A.Mansurov musiqasi)" mavzusidagi ochiq darsi 2024-yil 15-oktabr kuni 3-kurs Musiqa ta'limi yo'nalishi 4-MUS-22-guruh talabalari bilan o'tkazildi. Darsda ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi, interfaol uslublari, musiqa idroki, tinglash va bolalarda vokal xor ijrochiligi madaniyatini shakllantirish haqida tushunchalar berildi va bu fanning ta'lim sohasidagi o'rni haqida ma'lumotlar keltirildi.

Dars ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etildi. Mavzuning rejalari aniq va to'liq berilgan. Dars davomida o'qituvchi tezkor savollar yordamida "Savol-javob metodi"ni qo'llagan holda o'tilgan mavzuni mustahkamlab oldi. Talabalarni bugungi kundagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yangiliklar bilan tanishtirib o'tdi. O'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda o'quv rejalari va dasturlariga amal qildi. Pedagog o'quv materialini tushuntirishda har xil vositalar bilan uning talabalar tomonidan idrok etilishiga, anglashiga, esda saqlab qolishiga erishdi. Dars jarayonida talabalarga "Blits so'rov" metodi yordamida savollar berdi va savollarga javob oldi.

**Tahlilchi – kafedra o'qituvchisi M.Naimov**

Darsning sifati har bir dars komponentlarining to'g'ri aniqlanganligi ularning rasional uyg'unlashuviga bog'liq. Shunday ekan, bugungi M.Gadoyevaning ochiq darsini kuzatib, quyidagi fikrlarni aytmoqchiman. Darsning sifati har bir dars komponentlarining to'g'ri aniqlanganligi ularning rasional uyg'unlashuviga bog'liq. Shunday ekan, bugungi M.Gadoyevaning ochiq darsini kuzatib, quyidagi fikrlarni aytmoqchiman.

Darsni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etdi:

a) darsda maqsadni aniq - ta'limiy va tarbiyaviy masalaga qaratdi.



- b) o'quv materialini tahsil oluvchilarga yetkazishda munosib metoddan foydalandi;
- c) talabalar jamoasi aniq bir faoliyatga jalb etildi;
- d) darsning rejasi va maqsadi aniq, puxta oldindan rejalashtirilgan;
- e) fan bo'yicha me'yoriy hujjatlar yetarli;
- g) dars jarayonida bahs usullaridan samarali foydalanildi;
- h) ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanildi;
- i) darsda talabalar faol ishtirok etdilar;
- j) dars qiziqarli tashkil etildi.

Yosh avlodni bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Bugungi ochiq darsni R.Pardayeva ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib bordi. Dars davomida talabalarning faolligini oshirishga, muntazam tarzda qiziquvchanligini oshirishga harakat qildi. O'qituvchi oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi.

**Tahlilchi – o'qituvchi D.Avloqulov:**

Bolalarning ijtimoiy moslashuvi fanining namunaviy dasturi, ishchi dasturi, kalendar tematik ish rejasi, fanning texnologik xaritasi, ma'ruza matnlari mavjud. Elektron ta'lim kontenti namunali darajada. Mavzu juda qiziqarli yoritib berildi. Darsda ko'rgazmali qurollardan foydalanildi. Talabalar savollarga erkin javob berdilar. O'qituvchi darsni tashkil etish jarayonida pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalangan holda talabalarni mashg'ulotga jalb qila oldi.

**Tahlilchi - o'qituvchi X.Nazarov:**

O'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qildi. Talabalar bilan ishlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanganligi va taqdimotni talab darajasida tayyorlanganligi talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirdi. Dars mavzusiga oid Qonun va qarorlar bilan yoritilgan. Talabaning bilim olishdagi mustaqilligini oshirish, mustaqil faoliyatini tashkil etish yo'li bilan ular nutqining to'g'riligi va sofligiga mas'uliyat bilan qarash lozim, deb o'ylayman.


**Darsda muhokama qilish mumkin darajada kamchiliklar kuzatilmadi.**

Yuqoridagilarni tinglab, majlis qaror qiladi:

1. M.Gadoyevaning ochiq darsi zamonaviy talablar darajasida o'tganligi, bolalarga ijtimoiy-psixologik yordam berish yo'llari keltirib o'tilganligi qayd qilinsin.
2. M.Gadoyevaning olib borgan ochiq darsning dolzarbligi, ilmiy-amaliy jihatdan mukammalligi hisobga olib, dars ijobiy baholansin.

**Majlis raisi:**

**Kotib:**



**O.Abdilov**

**M.Qayumov**



## Ochiq dars jarayonidan lavhalar





